



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1 (4) 2024

2024

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 1(4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирхолжаева Гулнора Абдукаххаровна – т

Турдиев Ҷекруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфзизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEM S TEAM” маъсулияти чекланган жамияти.

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

|  |       |
|--|-------|
| <i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i>                                    |       |
| XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI    |       |
| TAVSIFI (1-qism).....  | 9-14  |
| <i>Mirzayev Avazbek</i>  |       |
| ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI ..... | 15-21 |
| <i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i>  |       |
| ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ                    |       |
| ЁНДАШУВЛАР .....   | 22-28 |
| <i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i>                                   |       |
| XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA        |       |
| IMPERIYALARI RAQOBATI .....  | 29-34 |
| <i>Джалолов Бахром Джамалович</i>  |       |
| СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА             |       |
| БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ .....  | 35-39 |
| <i>Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna</i>                                       |       |
| O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA        |       |
| QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR             |       |
| SIYOSATI .....   | 40-45 |
| <i>Ochilov Farhod</i>  |       |
| O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMoya   |       |
| QILISHDAGI FAOLIYATI .....   | 46-52 |
| <i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i>  |       |
| ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОЙ МУОММОЛАР .....               | 53-58 |
| <i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i>                       |       |
| ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ .....           | 59-65 |
| <i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i>  |       |
| XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN |       |
| ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR .....  | 66-71 |

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

|   |         |
|---|---------|
| <i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i>                              |         |
| СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ         |         |
| МОДЕЛИ .....  | 72-78   |
| <i>Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich</i>                                |         |
| TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI |         |
| TA'MINLASHDAGI O'RNI .....  | 79-90   |
| <i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i>                                  |         |
| MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI .....                    | 91-99   |
| <i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i>                                      |         |
| АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ        |         |
| МОХИЯТИ .....   | 100-109 |

|  |         |
|--|---------|
| <i>Болтаев Нурали Шираматович</i>  |         |
| АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ                |         |
| АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....                             | 110-118 |
| <i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i>                                     |         |
| ДАВЛАННИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА               |         |
| ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ .....                                       | 119-124 |
| <i>Жураева Гульзира</i>  |         |
| АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В                    |         |
| МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ .....            | 125-130 |
| <i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i>  |         |
| BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA       |         |
| NOPARAMETRIK USULLARI .....  | 131-136 |
| <i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i>  |         |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQARISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH |         |
| KO'RSATKICHLARI .....  | 137-147 |
| <i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i>  |         |
| ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР          |         |
| БЎЙИЧА АНИҚЛАШ .....   | 148-157 |
| <i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i>                                   |         |
| SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY        |         |
| SHARTI .....   | 158-170 |

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

|  |         |
|--|---------|
| <i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>   |         |
| БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН Аллома .....                            | 171-175 |
| <i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманнановна</i>                                      |         |
| ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА               |         |
| АЛИ ДЖИННЫ .....   | 176-181 |
| <i>Nasimov Azizbek Azimovich</i>   |         |
| AXBOROTLASHGAN JAMIyat RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY           |         |
| МОНИЯТИ .....  | 182-186 |
| <i>Norkulov Olim Nasimovich</i>  |         |
| GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSİYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA              |         |
| TA'SIRI .....  | 187-191 |
| <i>Хасанов Бобуржон Ҳакимович</i>  |         |
| ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ                        |         |
| ИСТИҚБОЛЛАРИ .....   | 192-197 |
| <i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>  |         |
| YANGI O'ZBEKİSTON VA İJTİMOİY DAVLATÇILIK .....                                  | 198-204 |
| <i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i>                                       |         |
| SİVİLİZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING İJTİMOİY-            |         |
| FALSAFIY AHAMIYATI (Samuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuv" asari |         |
| asosida) .....   | 205-214 |

*Shukurov Orif Jumaboyevich*

JAMIyatda yoshlarning ijtimoiy aktivligini oshirish

xususiyatlari va tamoyillari ..... 215-219

**10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***Akhmedov Oybek Saporbayevich*

Theoretical overview of the definition "term" and "terminology" in

linguistic surveys ..... 220-227

*Ravshanova Gulruxbegim Қаҳрамон қизи*

ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕ'РИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ ..... 228-232

*Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna*

AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI ..... 233-237

*Uliqova Mavludaxon*

“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON

BO'LISHI ..... 238-243

*Rahmonov Asror ibni Nusrat*

HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O'RNI ..... 244-252

*Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna*

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI .... 253-258

*Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOIY-MADANIY FARQLAR .... 259-265

*Vokhidova Tamanno Saidjonovna*

MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION ..... 266-271

*Djurayeva Shahlo G'ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna*

INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING BADIY SEMANTIKASI ..... 272-277

**12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР***Uzakova Go'zal Sharipovna*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA “YASHIL QURİLISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY

MASALALARI ..... 278-286

*Mirzaev Shukhrat Shavkatovich*

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ ..... 287-293

*Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li*

SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL ..... 294-301

*Islombek Abdikhakimov*

QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES ..... 302-309

*Xodjaeva Shirokhon Olimxon kizi*

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ

СИСТЕМЕ ..... 310-315

*Jiyenbayev Baxadir Ospanovich*

EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA

XORIJY TAJRIBA ..... 316-322

*Alishaev Sobir Tursunboevich*

СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ

ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ..... 323-329

|   |         |
|---|---------|
| <i>Адембаев Аралбай Куралбаевич</i>   |         |
| АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ<br>ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН<br>ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ ..... | 330-339 |
| <b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>  |         |
| <i>Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников</i>   |         |
| ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-<br>ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ<br>ПЕРСПЕКТИВЫ .....                                  | 340-346 |
| <i>Xajiyeva Iroda Adambayevna</i>   |         |
| TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI<br>TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNING O'RNI .....  | 347-351 |
| <i>Ayatov Raximberdi Ibragimovich</i>   |         |
| XORIJUY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI<br>O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH .....  | 352-357 |
| <i>Saidova Dilobar Ikrambayevna</i>   |         |
| MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI<br>RIVOJLANTIRISH ZARURATI .....   | 358-361 |
| <i>Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li</i>  |         |
| KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING<br>KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH<br>METODIKASI .....                        | 362-367 |
| <i>Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна</i>  |         |
| ТИБИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА<br>ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ .....   | 368-375 |
| <i>Janonova Sitora Berdinazarovna</i>   |         |
| TA'LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA<br>TUSHUNCHASINING O'RNI .....  | 376-381 |
| <i>Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи</i>   |         |
| ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА<br>ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО<br>СИФАТИДА .....  | 382-387 |
| <i>Bakhadirova Shoxina Nadir kizi</i>   |         |
| INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA<br>TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH .....  | 388-392 |
| <i>Qurbanova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloyevna</i>  |         |
| OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI .....   | 393-397 |
| <i>Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi</i>  |         |
| BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI<br>RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION<br>METODLARI .....          | 398-403 |

**Quramboyev Alisher Maxsudovich**  
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti  
E-mail:quramboyevalisher@mail.ru

### **YANGI O'ZBEKISTON VA IJTIMOIY DAVLATCHILIK**

**Annotatsiya.** Davlatimiz tabiatи tobora ijtimoiy mazmun kasb etib, o'z faoliyat mazmuniga ko'ra, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sari odimlab bormoqda. Maqolada ushbu fikrlarning dalili o'laroq faktlar keltiriladi. Shuningdek, ushbu maqolada ijtimoiy davlat konsepsiyasining mazmun-mohiyati ochib beriladi. Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida ijtimoiy sohada amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarни ijtimoiy muhofaza qilish haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, jamiyat a'zolarini ijtimoiy muhofaza qilish, mamlakatda barqarorlikni ta'minlash, inson qadrini ulug'lash borasida olib borilayotgan say - harakatlarga doir fikr-mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, ijtimoiy davlat, inson qadri, kam ta'minlangan oila, ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat.

**Kuramboyev Alisher Maksudovich**  
Doctoral student of “Family and Women” Research Institute

### **THE NEW UZBEKISTAN AND THE SOCIAL STATE**

**Abstract:** The nature of our state is increasingly acquiring a social content, and according to the content of its activities, it is moving towards a democratic, legal, social and secular state. The article presents facts as proof of these opinions. Also, this article reveals the essence of the concept of the social state. In the conditions of modernizing Uzbekistan, the reforms implemented in the social sphere, especially the social protection of low-income families, are discussed. Also, opinions were given on the efforts being made to protect the members of the society, to ensure stability in the country, and to glorify human dignity.

**Key words:** New Uzbekistan, social state, human dignity, poor family, social justice, social protection, social policy.

**Курамбоев Алишер Максудович**  
Докторант НИИ «Семья и женщина»

### **НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И СОЦИАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВО**

**Аннотация.** Природа нашего государства все больше приобретает социальное содержание, а по содержанию своей деятельности оно движется к демократическому, правовому, социальному и светскому государству. В статье представлены факты, подтверждающие эти мнения. Также в данной статье раскрывается сущность понятия социального государства. В условиях модернизации Узбекистана обсуждаются реформы, реализуемые в социальной сфере, особенно в сфере социальной защиты малообеспеченных семей. Также были высказаны мнения о предпринимаемых усилиях по защите членов общества, обеспечению стабильности в стране, прославлению человеческого достоинства.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, социальное государство, человеческое достоинство, бедная семья, социальная справедливость, социальная защита, социальная политика.

**Mavzu dolzarbliji.** Ijtimoiy davlat konsepsiysi 20-asr boshlarida sanoatlashtirish, urbanizatsiya va ijtimoiy tengsizlik tufayli yuzaga kelgan muammolarga javob sifatida paydo bo'ldi. "Ijtimoiy davlat tushunchasi va g'oyasi ilk bor 1850-yilda nemis sotsiologi va faylasuf Lorens Fon Shteyn tomonidan qo'llanilgan. Unga ko'ra, ijtimoiy davlat davlatning ijtimoiy tengsizliklarni bartaraf etish va fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish uchun javobgarligi bilan tavsiflanadi. U davlat boylik va imkoniyatlarni yanada adolatli taqsimlash uchun iqtisodiy va ijtimoiy ishlarga aralashishi kerak, deb hisoblagan. Shteynning ijtimoiy davlat konsepsiyasida ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot huquqi kabi ijtimoiy huquqlarning muhimligi ta'kidlangan. U adolatli va barkamol jamiyatni ta'minlash uchun bu huquqlar davlat tomonidan kafolatlanishi lozimligini ta'kidladi.

Avvalo "**ijtimoiy**" so'zining ma'nosini aniqlashtirib olaylik, "**Ijtimoiy**" so'zi arabcha "**jamoa**", "**jamiyatga oid**", degan ma'nolarni anglatadi.[1][2;12-b.] "Ijtimoiy" va "ijtimoiylik" tushunchalari jamiyat yoki guruh ichidagi shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar va xatti-harakatlarni anglatadi. U shaxslarning bir-biri bilan bog'lanish, muloqot qilish va hamkorlik qilish usullarini, shuningdek, ushbu o'zaro munosabatlarni shakllantiruvchi normalar, qadriyatlar va institutlarni qamrab oladi.

Ijtimoiylik inson tabiatining asosiy jihatni bo'lib, turli jamiyat va madaniyatlarda turli shakllarda kuzatiladi. Bu inson rivojlanishining asosiy tarkibiy qismidir, chunki odamlar yoshligidanoq ijtimoiy munosabatlarni boshqarishni o'rganadilar. Ijtimoiylikni tushunish inson ehtiyojlari, motivlari, xatti-harakatlari, jamiyat va jamoalar faoliyatini o'rganish uchun juda muhimdir. Bu shaxslar munosabatlarni qanday shakllantirishi va saqlab turishi, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar qanday o'rnatilishi va amalga oshirilishi, jamiyatlarning vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanishi va o'zgarishini tushuntirishga yordam beradi. Huquqshunos Odilqoriyevning bu haqidagi fikri e'tiborga loyiq: "Ijtimoiylik, avvalo, bu adolat, ya'ni ko'pchilikning manfaatiga muvofiqlikdir, ikkinchidan, insonlarning hamjihatligi, o'zaro xayrixohligi ifodasidir. Shunga ko'ra, hayotni adolatliroq qiladigan har qanday qoida, har qanday qonun, har qanday tartib tom ma'noda ijtimoiydir"[2][3;79-b.]

Ijtimoiy davlat haqida fikr yuritadigan bo'lsak bugungi kunda, ijtimoiy davlat deganda, davlatning har bir fuqarosi munosib turmush sifatiga ega bo'lishi, ushbu davlatdagi moddiy boyliklar adolatli taqsimlanganligi tushuniladi.[3] [4;28-b.] Ijtimoiy davlat insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli va davlatchilik rivojining maxsus bosqichidir. Ijtimoiy davlat bu fuqarolarning ijtimoiy himoyalanishi va farovonligi haqida g'amxo'rlik qiluvchi davlatdir.

Ijtimoiy davlat ijtimoiy yo'nalgan siyosat olib borishi, ijtimoiy tengsizlikni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida balansga keltirishi, ijtimoiy rivojlanishda barqarorlikni saqlay olishi lozim. Ijtimoiy davlat bu paternalistik davlat degani emas, ya'ni davlat hamma narsani muhayyo etmaydi. Insonlar ham boqimanda bo'lmasdan imkoniyati yetarli bo'lsa harakat qilishi lozim. Ular huquq va erkinlik bilan birga, javobgarlik va mas'uliyatni ham his etib yashashlari shart. Lekin, inson ehtiyojlarini qondirib, yaxshi hayot kechirishi uchun ishli va daromadli bo'lishi kerak. Davlatning esa ijtimoiylik tabiatini ko'rsatadigan narsa bandlikni ta'minlash, ishsizlikni oldini olish, ish o'rnlari yaratishdir. Ishsizlik- bu ishga bo'lgan talabning qondirilmay qolishidir. Davlat fuqarolarni tizimli, tartibli va doimiy daromadli bo'lishini ta'minlashi kerak. Ishlashni xohlayman, bilagimda kuchim bor degan insonlarni mablag'ga ega bo'lishiga ko'maklashish, mehnat huquqini kafolatlash va shu orqali hayot mashaqqatlarini yumshatish, teng imkoniyatlar yaratishi lozim. Ijtimoiy jihatdan rivojlangan davlat ideal davlat sifatida, ijtimoiy qatlamlarning turmush darajasida farq unchalik sezilmaydi.

Yangilangan konstitutsiyamizda ham bu narsalar kafolatlandi. Moddalar davlatimizni ijtimoiy yo'naltirilgan, insonparvar-ijtimoiy tabiatini ko'rsatyapti. Konstitutsiyaning muqaddimasida ham davlatning asosiy maqsadi-fuqarolarimizning munosib hayot kechirishlarini ta'minlash, belgilangan. Davlat organlari va mansabdar shaxslar fuqarolarga xizmat qiladi, ular oldida mas'uldir, ya'ni davlat organlari, jamoat tashkilotlari va mansabdar shaxslarning bu borada ijtimoiy majburiyatlar mavjud. Zamonaviy ijtimoiy davlatning qolipi yo'q, albatta. Chunki, jahondagi davlatlarning har biri o'ziga xos yo'li, xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy davlatning funksiyalari juda ko'p. Quyidagilarni eng muhimlari deb hisoblaymiz: oilani himoyalash, tirikchilik uchun eng kam me'yorni belgilash, ijtimoiy ta'minot tizimini yo'lga qo'yish, ta'lim tizimi va tibbiy xizmatni rivojlantirish. **Fikrimizcha, ijtimoiy davlatning eng muhim belgisi ijtimoiy himoya hisoblanadi.** Ijtimoiy himoya ham ijtimoiy, ham falsafiy, ham iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. "Ijtimoiy himoya" atamasi keng ma'noda jamiyat hayotining barcha jabhalarida shaxsning huquqlari, iqtisodiy, siyosiy ehtiyojlari va manfaatlari ta'minlanadigan davlat tomonidan kafolatlangan vositalar majmuuni anglatadi. Shuningdek, ushbu mablag'lar odamlar uchun xavfsiz yashash sharoitlarini ta'minlaydi, jinoiy hujumlardan himoya qiladi, favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlarda yordam beradi. Tor ma'noda "ijtimoiy himoya" atamasi fuqarolarning kafolatlari va huquqlarini (iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy himoya) himoya qilish bo'yicha harakatlarni tavsiflash uchun ishlatalidi. Ijtimoiy himoyaning ajralmas qismi bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishdir." [4][5;160-b] Demak, ijtimoiy himoya jamiyatning barcha sohalarda sog'liqni saqlash, ishsizlik nafaqalari, pensiyalar va nogironlarni qo'llab-quvvatlash kabi turli xil ijtimoiy ta'minot dasturlarini taklif qilish orqali fuqarolar uchun xavfsizlik tarmog'ini ta'minlashga qaratilgan. Ijtimoiy himoya – bu odamlarni nafaqat moddiy jihatdan qo'llash, balki uning zamirida insonparvarlik,adolat g'oyalari mujassam. Olimlarning fikricha, ijtimoiy himoya konsepsiysi birinchi marta 1935-yil AQSHning "Ijtimoiy himoya xavfsizlik bo'yicha qonun"ida aks etgan va qariyalar, mehnatga layoqatsizlarga ijtimoiy yordam ko'rsatilishi borasida dasturlar ishlab chiqilishi haqida takliflar berilgan bo'lsa-da, lekin aholini ijtimoiy himoya qilish tushunchasining mohiyati va bu muammoni yechish bo'yicha taklif va tavsiyalar haligacha ishlab chiqilmagan edi. Keyinroq esa "ijtimoiy himoya" tushunchasining mohiyati XMT konvensiyalarida takomillashtirilgan va uning mohiyatini tushuntirishga harakat qilingan.

Bizningcha, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi ko'plab omillarga bog'liq:

- iqtisodiy baquvvatlik (davlatda qachonki iqtisodiy o'sish barqaror bo'lsa kambag'allikni qisqartirishda bazadir);
- fuqarolik jamiyat;
- inson kapitalini rivojlantirish (ularni ta'limi, sog'lagini muhofazalash, uy-joy bilan ta'minlash, qulay ekologik muhit yaratish )
- huquq va qonun ustuvorligi;
- demokratik daraja aholi manfaatlariga mosligi;
- davlat ijtimoiy siyosat darajasi;
- bozor iqtisodiyoti;
- tadbirkorlikni rivojlantirish va davlatni tadbirkorlar bilan ishlashi;
- ijtimoiy ta'minot tizimi va boshqalar.

Aholining ijtimoiy ta'minoti ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'idir. Odatda, rivojlangan demokratik davlatlarda ijtimoiy himoya qilish mas'uliyatini davlat o'z bo'yniga oladi. Ijtimoiy himoya – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy barqarorlikning garovi hisoblanadi.

Taraqqiyotimizning oxirgi o'n yilligida har bir kelayotgan yilni ma'lum bir nom bilan nomlash odad tusiga kirdi. Bu nomlarning deyarli barchasi aholini ijtimoiy himoyalashga taalluqli bo'lib, shu asosda yaxlit ijtimoiy himoya siyosati har yili aholining ma'lum bir tabaqasiga qaratilgan holda amalga oshirilib kelinyapti. Bu nomlarga mos keluvchi davlat dasturlari tayyorlanib, bu davlat dasturlari realizatsiyasi uchun milliardlab so'm davlat va nodavlat mablag'lar yo'naltirilyapti.

"Ijtimoiy himoya" faqat moddiy ko'makdan iborat emas, uni kengroq tahlil etib, eng avvalo, ma'naviy omilning o'rnnini unutmasligimiz lozim. Ilmiy – falsafiy adabiyotlarda "ma'naviy omil" tushunchasiga ta'rif berilmagan. Turli yo'nalishdagi lug'atlarda "omil" so'zi uchramaydi. "Omil" so'zi ruschaga "фактор" deb tarjima qilinadi. Lug'atlarga muvofiq "фактор" (omil) – lotincha "qilmoq", "ishlab chiqarmoq", ish , harakat, qandaydir voqeа – hodisa va ishlab chiqarishning yuzaga chiqishi, sodir bo'lishining harakatlantiruvchi kuchi ekan, bu, o'z navbatida tadqiq etilayotgan muammo doirasida "ma'naviy omil"ga aynan yoshlarni jamiyat iqtisodiy, itimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalarida faollashuviga yetaklovchi asosiy sabab sifatida e'tibor qaratishga imkon beradi. "Ma'naviy omil" va "shaxs" o'zaro bir – biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar[5] ekanligini ta'kidlaydi. Fikrimizcha, ma'naviy omil tushunchasi "Inson qadri" tushunchasi bilan ham bog'liq. Inson qadrini ta'minlash esa ijtimoiy davlat orqali amalga oshadi. Shuningdek, ma'naviy omil - insonni mehnatga, harakat qilishga, azm-u shijoat qilib o'z hayotini jilovini qo'liga olishga undovchi axloqiy kuch va turtki hamdir.[6;74-b.]

Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi aholi farovonligini uzluksiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb, daromadlari jihatidan keskin tafovutlarga barham berish, insonga munosib hayot darajasini va inson kapitalini rivojlantirishdan iborat. Maqsad: inson taraqqiyoti, inson qadrini ta'minlash.

"Inson taraqqiyoti bu kishilarga sog'lom va bunyodkor hayotni ta'minlovchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muhitni yaratish va ularga hayotning turli sohalarida keng tanlov imkoniyatini yaratishdir"[6] [7;14-b.]Fikrimizcha, inson taraqqiyoti deganda uning hayot sifatini yaxshilashdan tashqari, insonning ma'naviy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishini ham e'tiborga olish kerakligini unutmasligimiz kerak.

**Davlat rahbarimiz** esa inson qadri tushunchasiga quyidagicha keng ma'noda tavsif berib o'tdilar: "Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz"[7]. [8;43-b]

Ijtimoiylikning asosiy sharti – insonni oliv qadriyat darajasiga olib chiqishdir. Ijtimoiy davlatning mohiyati esa, uning oqilonha ijtimoiy siyosatni ishlab chiqib, inson va jamiyat manfaatlariga mos ijtimoiy funksiyalarni izchil amalga oshirishda o'z aksini topadi.

Mustaqillik davridan beri bugungi kungacha kuchli ijtimoiy siyosat yurgizilib kelinayotganligi natijasida bu sohada juda katta tajriba orttirdik. Buning natijasida 2011 – yilda Jahon banki O'zbekistonni daromadlar ko'rsatkichi past davlatlar ro'yxatidan chiqarib, o'rtacha daromadli davlatlar ro'yxatining quyi pog'onasiga kiritilganini islohotlarning namunasi sifatida ko'rshimiz mumkin. Bu sohada muammolar ham ko'zga tashlanyapti. Hozirgi davrda O'zbekiston aholisining saltkam 16 foizi aholisi nochorlikda kun kechirayotgan bo'lsa, ularning 75 foizi qishloq joylarga to'g'ri keladi. Mamlakat oldida turgan murakkab muammolardan biri ishga joylashtirish imkoniyatining yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lib, qishloq va shahar tumanlari orasidagi farq kattaligicha qolmoqda. Ishsizlik darajasining yuqoriligi, oylik maoshlarning pastligi aholining ommaviy ravishda Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Janubiy Koreyaga mehnat migratsiyasiga olib kelmoqda.[8][9;231-b.] Orol dengizining qurishi

oqibatida ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kuchayishiga olib kelmoqda. Aholining turmush tarziga salbiy ta'siri bilan birga ularni ichimlik suvi bilan ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Oxirgi yillarda kam ta'minlanganlikni kamaytirish borasida sezilarli yutuqlarga erishdik. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, davlatimizda kam ta'minlanganlik darajasi 2001-yilda 28 % dan, 2016-yilda 15 % ga tushdi. Bu albatta qishloqlarda ish o'rnlari yaratish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga lozim e'tiborning natijasidir. Bugungi kunda har bir insonning ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlash borasida ijtimoiy himoyaga qaratilgan juda katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatmiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat tufayli juda oz muddatda kambag'allikni ikki barobarga qisqartrishga erishdik. O'zbekistonda 1 million 200 mingta kambag'al oila ro'yxati shakllantirilib, "Onlayn mahalla" elektron platformasiga kiritildi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xabariga ko'ra, hokim yordamchilari tomonidan har bir oilani kambag'allikdan chiqarish bo'yicha individual dasturlar ishlab chiqilib, "Onlayn mahalla" platformasiga joylashtirilgan. Bundan tashqari, oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha reglament tasdiqlangan. Yil yakuniga qadar respublikada 127 500 ta oila kambag'allikdan chiqarilib, kambag'allik darajasini 12 foizga tushirish choralar ko'rilmoxda.

Harakatlar strategiyasida va uning mantiqiy davomi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham belgilangan vazifalar bajarilib borilyapti va ijtimoiy sohada butkul yangi tizim, yangi model yaratilyapti. "Yangi O'zbekistonni o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo'nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir"[9] [10;199-b.]deya davlatimiz rahbari yangi O'zbekistonni qiyofasini tasvirlab berdilar.

Hozirda O'zbekiston ijtimoiy vaadolatli jamiyat sari bormoqda. Ijtimoiy davlat tamoyili xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi konstitutsiyada ham qoida sifati muhrlandi. Ijtimoiyadolat – bu qarashlar, jinsi, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlashdir.. Bu – avvalo, muhtoj, ehtiyojmand, nochor oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdir. Bu – avvalo, ijtimoiy insonparvarlikdir. Birinchi prezidentimiz oila haqida quyidagi fikrlari e'tiborli: "Oila jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib yashash mumkin emas." [10] [11;47-b.]Ijtimoiy davlatning muhim vazifalaridan biri-bu kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishdir.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy davlat sari odimlab borar ekan, "Monomarkazlar", Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tashkil etilishi, oliy ta'limga qamrov oshishi, maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil etilishi, pandemiya munosabati bilan "Ayollar daftari", "Temir daftar", "Yoshlar daftari", "Mehr daftari", "Sahovat va ko'mak" kabi tizimlarning joriy etilishi buning dalilidir. "Temir daftar" murod oilalarni barqaror bandligini ta'minlash, ularni doimiy daromadga ega qildirish. Bundan tashqari 2030 yillarga borib jahondagi rivojlangan 50 ta davlatlar qatoriga qo'shilish maqsadi qo'yilayotgani ham bejiz emas. So'nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari YaIMga nisbatan 2 baravarga oshib, kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobarga ko'paydi hamda nogironligi bo'lgan shaxslar va nogironligi bo'lgan bolalarning parvarishi bilan band bo'lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi.Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand

boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishining belgilanganligi mazkur sohani yagona yondashuv asosida isloq qilish zarurligini taqozo etmoqda. Xususan, davlatning nogironligi bo'lgan shaxslarning ishga joylashishi va ta'limga olishiga ko'maklashishi bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida mazkur yo'nalishda amalgalashirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirish tizimi joriy etilishi talab etilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitusiyada e'lon qilingan "ijtimoiy davlat" tamoyillarini inobatga olgan holda, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi va hududlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi. Aholiga ko'rsatiladigan barcha turdag'i ijtimoiy xizmatlar va yordamlar, shu jumladan kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordamlar bo'yicha arizalar "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali qabul qilinyapti. Har haftaning juma kuni "Mehr va saxovat kuni" sifatida belgilanib, barcha davlat organlari va tashkilotlari ehtiyojmand aholi, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda yolg'iz keksalar holidan xabar olish, ularga g'amxo'rlik qilish hamda xayriya tadbirlari o'tkazilyapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentidagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining asosiy faoliyatining 5-bandida o'g'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalar bilan ishlash yo'nalishida quyidagilar belgilangan:

oilalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish, bolalarni oilalardan ajratishning oldini olish, ota-onalarning ko'nikmalarini rivojlantirish;

og'ir hayotiy vaziyatda bo'lgan homilador ayollar, yolg'iz ota-onalar va yosh bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash tizimini tashkil qilish;

og'ir hayotiy vaziyatlarda bo'lgan oilalar farzandlari uchun ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish;

palliativ yordamni tashkil qilish.[11][12]

Quyidagilar davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

- kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish;
- ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzillilagini oshirish orqali aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash;
- ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og'ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish;
- aholining ijtimoiy sug'urta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish;
- xavf guruhlariiga tushib qolgan oilalarni aniqlash va kompleks ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali ularning og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish;
- nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot kechirishi uchun qulay muhit yaratish.

Xullas, ijtimoiy himoyalash, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni qo'llab-quvvatlash, yashash uchun zarur resurslarga ega bo'lish (suv, gaz, elektr, transport), doimiy daromadga ega bo'lish, aholi bandligi, majburiy mehnatni taqiqlash, ta'limga, sog'liqni saqlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, muhtojlarga uy-joy, yashash uchun muhim bo'lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo'yilishi, oilalarning munosib hayot kechirishi uchun yetarlicha ish haqi, xavfsiz mehnat sharoiti, kambag'allikni qisqartirish masalalari bilan shug'ullanish ijtimoiy davlatga xosdir. Qisqa qilib aytganda, ijtimoiy davlat hech kimni e'tibordan chetga qoldirmaydi. Har bir insonning muammolarini hal etishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy davlat deb atashga to'la asos mavjud. Bu qoida yangi konstitutsiyamizda ham mustahkamlab qo'yildi.

### **Адабиётлар / Литература / References:**

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.2013. 12-bet,336 s
2. Odilqoriyev. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik. Toshkent. Yuridik adabiyotlar Publish. 2022.B.79,424 s
3. Qoraxodjayeva. O. TDYU dots. "Ijtimoiy davlat sari qadam". "Inson va qonun" gazetasi № 25 son 5-iyul 2022-yil.
4. М.В Торопыгина. Институт семьи в современной России: социально-философский анализ. ) кандидат философских наук дисс. Автореф. – Москва, 2011, С. 160.190 с
5. Tulenova. G. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy omilning roli (ijtimoiy falsafiy tahlil). Dis. Falsafa fanlari dokt. Ijtimoiy falsafa. 2006. B. 74,161 с
6. Shirinov.A "Markaziy Osiyo davlatlarida inson taraqqiyoti konsepsiyasini amalga oshirishning xususiyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.Fan.Dokt. dis.avtoref. Buxoro davlat universiteti. 2023.-14 b.54 s.
7. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokrmatik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz //<https://president.uz/lists/view/43,52> s
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miriyoyevning Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi 75-sessiyasida so'zlagan nutqini o'rghanish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent. "Ma'anaviyat". 2021. Bet.231.254 s
9. Shavkat Mirziyoyev.Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. Bet. 199.204s
10. Karimov.I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. "O'zbekiston". 1993. 47-bet ,182 s
11. Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha komplkes chora tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 1 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).